

CHO'LPON SHE'RIYATIDA MILLIY UYG'ONISH VA ERKINLIK G'OYALARI

Xolboyeva Farzona

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti huzuridagi Akademik litsey 1-kurs o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20304107>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'riyatida milliy uyg'onish, istiqlol va erkinlik g'oyalarining badiiy ifodalanishi atroflicha tahlil qilinadi. Shoir ijodida xalqning milliy ozodlikka bo'lgan intilishi, ma'rifat va ilm-fanga bo'lgan hayotiy ehtiyoji hamda jamiyatda milliy ongni shakllantirish masalalari yetakchi o'rin tutadi. Tadqiqotda Cho'lpon yashagan davrdagi og'ir ijtimoiy-siyosiy muhit, mustamlaka siyosatining milliy qadriyatlarga salbiy ta'siri va buna javoban adib asarlarida aks etgan isyonkor ruh yoritib berilgan. Muallif xalqning o'zligini anglashi va hurlik uchun kurashishi milliy uyg'onishning bosh mezoni ekanligini shoir she'rlaridagi badiiy timsollar — yorug'lik, tong va qorong'ulik obrazlari orqali ochib beradi.

Shuningdek, maqolada Cho'lpon asarlarining bugungi mustaqillik davridagi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati, yosh avlod qalbida vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Shoir ilgari surgan g'oyalar nafaqat o'z davri uchun, balki hozirgi taraqqiyot bosqichida ham dolzarb manba bo'lib xizmat qilishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, milliy uyg'onish, erkinlik, vatan, ma'rifat, she'riyat, xalq, jadid adabiyoti, milliy ong, istiqlol g'oyasi.

Kirish

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy va maorif hayotida tub burilish davri boshlandi. Chorizm mustamlakachiligi ostida ezilgan xalqning milliy o'zligini asrab qolish, ma'naviy qashshoqlik va jaholat botqog'idan olib chiqish hayot-mamot masalasiga aylandi. Aynan shu og'ir sharoitda maydonga chiqqan jadidchilik harakati millat taqdirida hal qiluvchi o'rin tutdi.

Jadid allomalari va adiblari xalqni g'ofillik uyqusidan uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlash hamda milliy taraqqiyot poydevorini qurish uchun izchil kurash olib bordilar. Ushbu ijtimoiy va adabiy harakatning eng yorqin, otashin va ta'sirchan namoyandalaridan biri shubhasiz, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir.

U o'zining lirik asarlari va isyonkor she'riyati bilan o'zbek milliy uyg'onish adabiyotining tamal toshini qo'ydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Cho'lpon yashagan va ijod qilgan davr tarixning eng murakkab hamda ziddiyatli sahifalaridan biridir.

Mustamlaka hukumatining shafqatsiz senzurasini, milliy qadriyatlarni cheklash va xalqning haq huquqlarini kamsitish siyosatiga qaramasdan, shoir o'zining har bir satrida hurlik navolarini kuylashdan to'xtamadi. Cho'lpon o'z ijodiy faoliyatida nafaqat adib, balki millatning dardi bilan yonib yashagan chinakam jamoat arbobi sifatida namoyon bo'ldi. U o'z xalqini chuqur sevganligi sababli, uning tushkun ahvolidan iztirob chekdi va najot yo'lini faqat ma'rifat va ozodlikda ko'rди.

Bugungi kunda Cho'lpon 1 merosini o'rganish va uning she'riyatidagi g'oyaviy yo'nalishlarni tadqiq etish nihoyatda dolzarb vazifadir. Ushbu tadqiqotda Cho'lpon ijodidagi milliy uyg'onish va erkinlik g'oyalarining badiiy ifodasi, shoir qo'llagan ramziy timsollar va ularning bugungi yosh avlod tarbiyasidagi ma'naviy-tarbiyaviy o'rni keng qamrovli tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Milliy uyg'onish g'oyasining ifodalanishi

Cho'lpon she'riyatida milliy uyg'onish mavzusi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shoir xalqning taraqqiyotdan ortda qolish sabablarini chuqur tahlil qiladi va buning asosiy sababi sifatida jaholat hamda ilmning yetishmasligini ko'rsatadi. Adibning fikricha, xalq faqat ilm-ma'rifatga erishish orqali taraqqiy topishi mumkin. Shu sababli u yoshlarni o'qishga, bilim olishga va dunyoqarashini kengaytirishga chaqiradi. Muallif xalqning, jamiyatning o'zligini anglashni milliy uyg'onishning asosiy bosqichi ekanini ta'kidlaydi. Qalam sohibi ayrim she'rlarida odamlarning og'ir hayotini tasvirlar ekan, inson qalbidagi umid va ishonchni ham yo'qotmaydi. U millatning kelajagiga ishonadi va xalqni birlashishga undaydi. Ana shunday jihatlar Cho'lpon ijodining xalqchil ruhini namoyon etadi.

Erkinlik g'oyasining badiiy talqin

Adib she'rlarida erkinlik g'oyasi chuqur falsafiy mazmunda tasvirlangan. Shoir insonning erkin yashash huquqini eng oliy qadriyat sifatida ko'radi. U xalqning mustaqil va o'z huquqlari oldida ozod bo'lishini xohlaydi. Nazm ustasi ijodida zulm va adolatsizlikka qarshi norozilik kayfiyati yaqqol sezilib turadi. Erkinlikni u inson hayotining asosi deb hisoblaydi va ko'plab she'rlarida ozodlikka intilish ruhini kuchaytiradi. Cho'lpon ba'zan tabiat obrazlari orqali ham erkinlik g'oyalarini ochib beradi. Masalan, yorug'lik va tong obrazlari umid hamda ozodlik ramzi sifatida juda go'zal tasvirlab berilgan. Qorong'ulik esa xalqning og'ir mustamlaka hayotini ifodalaydi. Insondagi erkin qarash, erkin fikrlash uni har doim ezgulik sari yetaklaydi.

Cho'lpon ijodining bugungi kunda ahamiyat

Bugungi kunda Cho'lpon asarlari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda muhim manba hisoblanib kelmoqda. Adib ilgari surgan milliy uyg'onish va erkinlik g'oyalari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Mustaqillik yillarida Cho'lpon nomi batamom tiklandi va uning boy adabiy merosi xalqimizga qaytarildi. Hozirgi kunda maktab va oliy ta'lim muassasalarida shoir ijodi keng o'rganilmoqda. Nazm 2 ustasi she'rlari yosh avlodni vatanni chin dildan sevishtga, milliy qadriyatlarni qadrlashga va ma'naviy barkamol inson bo'lib voyaga yetishga undaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'riyati milliy uyg'onish va erkinlik ideallarining benazir ko'zgidir. Shoir o'zining betakror badiiy mahorati, yuksak estetik qarashlari va isyonkor ruhi orqali inson va millat erkinligini himoya qilgan. Uning har bir misrasida xalqni g'ofilik uyqusidan uyg'otish, ma'rifatga yetaklash va milliy o'zlikni anglatishga bo'lgan ulkan intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Cho'lpon mustamlaka zulmi ostida ezilgan millatning dardini nafaqat tasvirladi, balki unga najot yo'li sifatida ilm-fanni va ijtimoiy birlashishni ko'rsatib berdi. Bugungi mustaqillik va milliy tiklanish davrida shoir ilgari surgan ezgu g'oyalar yangicha fundamental ma'no-mazmun kasb etmoqda. U qoldirgan boy adabiy meros yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Cho'lpon ijodining tub mohiyati — ozodlik va insonparvarlik tamoyillari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi va xalqimizning ma'naviy yuksalishiga xizmat qilishda davom etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. – Toshkent: Xazina, 1997-1998.
2. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
3. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
4. Qosimov B. Cho'lpon ijodi va milliy uyg'onish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
5. Karimov N. Cho'lpon. – Toshkent: Fan, 1991.
6. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. – Toshkent: Xazina, 1994.
7. Karimov N. Uch buyuk siymo. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.
8. Cho'lpon. Adabiyot nadir. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 1994.
9. Fitrat A. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
10. Cho'lponning badiiy olami (Ilmiy maqolalar to'plami). – Toshkent: Fan, 1994.